



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH
FAOLIYATINING AHAMIYATI**

Denov Tadbirkorlik Va Pedagogika Institutining

Mtl-Bosqich Talabalari

Abdurahmonova Ra'no murotaliyevna

Meliyeva Shahnoza erin qizi

Amonova Nigina obid qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lrim muassasasida tashkil etiladigan sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta'lrim muassasasida sahnalashtirish faoliyati bolalar tafakkurini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri sanaladi.

Kalit So'zlar: sahnalashtirish faoliyati, tafakkur, teatr madaniyati, bolajonlar teatri

Sahnalashtirish o'yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom va o'z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobjiy ma'naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish o'yinlarida bolalar o'yin jarayoniga kirib boradilar, voqeа va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobjiy fazilatlarni o'zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug'at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.

2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.

3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).

4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.

5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.

6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmog'I zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko'radilar. Masalan, «Sholg'om», «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo'g'irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta qo'yib berish, sahnada ko'rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o'yinlari qiziqarli o'tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to'g'ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o'yin rejissyori rolini

amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlarini, intilishlarini hisobga olib boradilar. O'yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag'batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechaeva o'z tadqiqotlarida qurish-yasash o'yinlarining o'ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib bergenlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali qo'llanmalarni chop etmoqdalar.

Maktabgacha davr – bu bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganishga, bilishga ishtiyocoq kuchli bo'lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviyaxloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o'zini, o'zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurishyash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'nalishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejallashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqligil bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatishfanining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida sahnalashtirish ishlarini olib borish, bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi Qonuni» va «Maktabgacha ta'lim konsepsiysi» asosida MTMdA ijodiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, bolalar ijodiga, qo'l mehnati faoliyatiga rahbarlik qilishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatishfanining vazifasi MTMdA bolalarni sahnalashtirish, aktyorlikka tayyorlash, ijodiy faoliyatini tashkil etishga, qo'l mehnatiga, badiiy mehnatga qiziqishlarini uyg'otish, mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo'naltirish; bolalarda ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg'otish; qog'oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va ko'nikmalarini tarbiyalash;

buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalarshirish, tayyorlash texnologiyasini o'rgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o'rgatish; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish hamda badiy didlarini shakllantirishga, vaqt ni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir. 1.Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo'l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko'rinishini o'zgartirishi ham mumkin. Bolalar ijodiyoti va uning o'ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko'pgina bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Pedagog san'atda bu faoliyat qanday harakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o'z faoliyatlarida ya'ni o'yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan tassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar. Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida o'ziga xos harakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o'z his-tuyg'ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko'rinishlar bilan bog'liq emas, balki bola ishlayotgan, ko'rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: qalam va bo'yoqlar qog'ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kash etadi, chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi. Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o'z xohishi va kattalarning taklifiga ko'ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy harakter tusini olgan bo'ladi. Bolada fikr, maqsad bo'lib, ularni namoyon etishga harakat qiladi. Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi fikrning paydo bo'lishi-bola faoliyatida ham hosil bo'ladi. Rassomda fikrning paydo bo'lishi bilan odatda mazmunini va bajarish vositalarini o'ylab boradi, ish uchun odatda uzoq vaqt kerak bo'ladi, bolada esa ko'pincha bu bosqichning hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik o'ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o'z ishining natijasini va uni bajarish yo'lini oldindan ko'ra olmaydi. Avvaldan o'ylab ko'rish va ishni rejalarshirish tasvirlash jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bolalar ijodiyotida faoliyatlar jarayonida ish mazmunini o'zgartirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bola tasvirlayotgan rasmdagi timsollarga umuman taalluqli bo'lмаган detallarni kiritishi mumkin. Bolalarning tasviriy ijodiyotining o'ziga xos tomonlarini o'rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etgan holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizdir. Bolalar rasm,

appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimlash mashg'ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yuqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda qo'yidagilar rivojlanadi va shakllanadi: ● tasviriy san'at sohasiga doir qobiliyatları aniqlanadi va shakllantiriladi; ● qalam, mo'yqalamni ushslash, loy, plastilin bilan ishslash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimlash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi; ● bola yozuv texnikasini egallahsga tayyorlanadi; ● bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi; ● tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi; ● jamoa bo'lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishslash malakalari shakllanadi; ● xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi. 2. Ijodkorlik qobiliyatining tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongingin faol mahsulidir. "Maktabgacha ta'lim konsepsiysi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdag'i bolalar rasm chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta —sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo'llarini o'rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o'zing yasa, bir narsa o'yla, qidirib top, o'zgartir kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar. Ikkinci bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarni kombinatsiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsiyonal tarzda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O_zbekiston, 2017.
- 2017-2021 yillarda O_zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo_nalishi bo_yisha Harakatlar strategiyasi. O_zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017

yil 7 fevraldagি PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo`stoni 2013